

GERMANIYA VA POLSHA SELEKSIYASIGA MANSUB SIGIRLAR YELINING MORFO-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: Amonov Rasul Chorshambi o'g'li,

Bakalavr: Ja'abaev Timur Baxadir uli

Bakalavr: Taxiroy Samandar To'rebay uli

Bakalavr: Sarsenbaev Jasur Radj uli

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya. Bu maqolada Germaniya va Polsha seleksiyasiga mansub sigirlar yelinining morfo-funksional xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Yelinini morfologik tuzilishi va funksional xususiyatlari, Vannasimon yelin, Kosasimon yelin, Yumaloq yelin.

Kirish. Sigirlarni yakka tartibda baholashda ularning yelinini morfologik tuzilishi va funksional xususiyatlari asosiy o'rinda turadi. Chunki dunyoda eng nozik va zarur bo'lgan inson salomatligi uchun asosiy vazifani o'taydigan, tarkibida almashtirib bo'lmaydigan 100 dan ortiq 200 yaqin moddalarni saqlaydigan noyob sut mahsuloti aynan sigirning yelinida to'planadi yoki hosil bo'ladi. 1 l sut hosil bo'lishi uchun sigir organizmida qanchadan-qancha biologik jarayonlar kechadi. Eng asosiysi sigirning butun interyer ko'rsatkichlari sut hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Birgina misol 1 l sut paydo bo'lishi uchun yelindan 400-500 kg qonni oqib o'tishi lozim. Bekorga sigir organizmini tirik fabrikaga o'xshatmaydilar. 5-6 soat oldin iste'mol qilgan noorganik moddalarni organik moddaga aylantirib, shu vaqtning davomida sut paydo qilishi uchun qanchadan-qancha muhim jarayonlar amalga oshiriladi. Buning barchasida yelin markaziy organ hisoblanadi va sutning miqdori va uning sifati qandaydir darajada shu yelenga bog'liq bo'ladi.

Taqiqot maqsadi. Yelinning eng muhim morfologik belgisi uning shakli hisoblanadi. Yelinlar o'z shakliga qarab vannasimon, kosasimon, yumaloq, echki va ibtidoiy yelinlarga bo'linadi. Vannasimon yelin hajmining kattaligi, oldingi va orqaga qarab yaxshi rivojlanganligi, yelin tagining tekis bo'lishi, bo'laklarining teng rivojlanganligi, so'rg'ichlarining bir-birovidan ma'lum bir masofada joylashganligi bilan ajralib turadi.

Kosasimon yelin hajmi katta hamda sigir qorniga mustahkam birikkanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday shakldagi yelinlarda oldingi va orqa bo'lmalar bir-biriga teng rivojlangan bo'lib, so'rg'ichlari ancha keng joylashgan va to'g'ri o'rtnashgan bo'ladi.

Yumaloq yelin biroz kichikroq hajmda bo'lib, uning bo'laklari pastga qarab yaxshi rivojlangan. Lekin, yelinning tanaga birikish maydoni biroz kamroq bo'ladi. Echki yelin sigir tanasiga noqulay birikkanligi, oldingi bo'laklarini orqa bo'laklariga qaraganda yaxshi rivojlanganligi, so'rg'ichlarning notekis va bir-biroviga zich joylashganligi bilan farq qiladi. Ibtidoiy yelinni hajmi juda kichik bo'lib, ularni bo'laklari yaxshi rivojlanmagan, so'rg'ichlari bir-biroviga echki yelindan ham zich joylashganligi bilan ajralib turadi.

Tatqiqot manbai va usullari. Bizning tajriba o'tkazgan obekt Samarqand viloyatidagi "Siyob-Shavkat-Orzu" fermer xo'jalikda tajriba o'tqazildi. Vannasimon va kosasimon yelinli sigirlarni mashinada sog'ish samarali hisoblanadi, echki va ibtidoiy yelinli sigirlar mashinada sog'ish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Tatqiqot natijalari. Bu maqolada biz sigirlar yelinining shakli bo'yicha guruhlariga ajratdik. I-guruhdagi Germaniya seleksiyasiga mansub sigirlarning 4 boshi vannasimon, 6 boshi kosasimon, II-guruhdagi Polsha seleksiyasiga mansub sigirlarda bu nisbat 2:8 boshni tashkil qilgan.

Biz tajribadagi barcha guruhlariga mansub sigirlarning yelinining morfo-funksional ko'rsatkichlarni o'rganib, olingan ma'lumotlarni quyidagi 1-jadvalda havola qildik.

1-jadval

Germaniya va Polsha seleksiyasiga mansub sigirlar yelinining morfo-funksional xususiyatlari, sm

Ko'rsatkichlar	Guruhlar			
	I		II	
	X±S _x	Cv%	X±S _x	Cv%
Yelin aylanasi	124,5±0,25	1,66	122,6±0,12	1,26
Yelin uzunligi	35,6±0,19	1,23	33,0±0,16	0,99
Yelin eni	32,0±0,21	2,91	31,1±0,18	2,43
Yelinning oldingi qism chuqurligi	29,1±0,18	1,33	28,0±0,09	1,60
Yelinning orqa qism chuqurligi	30,9±0,14	2,86	30,1±0,23	2,32
Yelinning shartli hajmi, sm ³	3670,7±21,7	9,1	3509,8±7,13	8,53

Yelinning oldingi so'rg'ichlar uzunligi	8,98±0,019	0,48	8,93±0,014	0,63
Yelinning orqa so'rg'ichlar uzunligi	9,64±0,015	0,93	8,76±0,033	0,56
So'rg'ichlar diametri	2,42±0,048	0,61	2,40±1,13	1,43
Yelin indeksi, %	43,6±0,14	1,99	43,5±0,044	1,76
Sut berish tezligi, kg/daq	2,21±0,031	0,96	2,19±0,10	0,27

1-jadval ko'rsatkichlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha yelinlarning texnologik belgilari sigirlarning zot va zotdorligi bo'yicha uyg'unlashgan va bir-birovidan farq qilgan. Bunda Germaniya seleksiyasiga mansub bo'lgan I guruhidagi sigirlar ustivorlik qilishgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yelinning aylanasi bo'yicha I-guruhidagi sigirlar, o'z tengqurlari II - guruhidagi sigirlardan mutanosib tarzda 1,9 sm yoki 1,5 foiz, yelin uzunligi bo'yicha 2,6 sm yoki 7,3 foiz, yelin eni bo'yicha 0,9 sm yoki 2,8 foiz, yelinning oldingi qism uzunligi 1,1 sm yoki 3,8 foiz, yelinning orqa qism uzunligi 0,8 sm yoki 2,6 foiz, yelinning shartli hajmi bo'yicha 160,9 birlikda yoki 4,4 foiz, yelinning oldingi so'rg'ichlar uzunligi 0,05 sm yoki 0,6 foiz, yelinning orqa so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 0,88 sm yoki 9,1 foiz, so'rg'ichlar diametri bo'yicha 0,02 birlik yoki 0,8 foiz, yelin indeksi bo'yicha 0,1 foiz, sut berish tezligi bo'yicha 0,02 kg/daq yoki 0,9 foiz ustivorlikka erishishgan.

Xulosa

Demak I va II-guruhidagi sigirlarning genetik kelib chiqishidan qat'iy nazar, yelinning funksional ko'rsatkichlari Germaniya seleksiyasiga mansub bo'lgan sigirlarda o'z tengqurlari qora-ola zotining O'zbekiston xiliga mansub sigirlarga qaraganda talab darajasida ekan. Bu esa I.M.Dunin (1998), A.V.Bakay va boshqalar (2013), M.S.Gabayeva va boshqalarning (2013) tadqiqotlarida golshtin zoti bo'yicha zotdorligi yuqori bo'lgan sigirlar yuqori yelin ko'rsatkichlariga ega bo'lganligi kuzatilgan va bizning tadqiqotlarimiz natijalari ham ushbu tadqiqotlarning xulosalariga mos kelishi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib yelinning morfo-funksional xususiyatlari bo'yicha har ikkala guruhidagi sigirlar yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan. Shuning uchun ham ularni sut mahsuloti miqdori yuqori bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirov P.S., Kaxarov A.K., Do'stqulov S.D. Chorva mollarini urchitish. Toshkent. 2003. 352 b.
2. Сарапкин В.Г., Бялькина Т.А. Особенности экстерьера черно-пестрых коров средне-поволжского типа. Ж. «Зоотехния», №10, 2005, с. 3-6.
3. Sattorov F. Qora-ola zotli sigirlarini seleksion belgilarini golshtin zoti bilan takomillashtirish yo'llari. Qishloq xo'jaligida yaratilgan innovatsion ishlanmalar. Katta ilmiy xodim – izlanuvchi va yosh olimlarning to'plami. I-qism. Samarqand.2015. 249-251 b.
4. Пинчук И. Молочная продуктивность коров разных внутривидовых типов. Ж. «Молочное и мясное скотоводство», №1, 1998, с. 20-22.